



**KLINIK LABORATOR  
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA  
YECHIMLAR**  
**xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman**  
**18 aprel 2023 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi**

**WWW.SSV.UZ**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi [www.tma.uz](http://www.tma.uz)**

bog'liq kranial polinevropatiyalarning diagnostik xususiyatlari .....	328
<b>Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Covid-19 klinik kechishining o'ziga xos xususiyatlari .....	329
<b>Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Covid-19 etiologiyasi va patogenetik mexanizmlari .....	331
<b>Musayeva N.B., Islamova Z.S.</b> Hemostasiological changes in rheumatoid arthritis .....	332
<b>Mustanov J.A., Rasulov SH.M.</b> Teri leyshmaniozini tashxislashda klinik va laborator tekshirishlarning ahamiyati .....	334
<b>Nishonov A.A., Nuriddinova N.F.</b> Laborator diagnostikada it texnologiyalarni joriy qilinishi .....	336
<b>Nishonov A.A., Nuriddinova N.F.</b> Implementation of innovative technologies in clinical laboratories .....	337
<b>Otayeva G.A, Ibaydullayeva B.R., Maxmudova A.Yu., Kasimova E.A., Salimjonova D.X.</b> O'pka kasalliklarining asoratlari kelib chiqishi va kasallik chaqiruvchi omillari .....	339
<b>Po'latov M.Q, Rashidova N.S.</b> Migren bilan kasallangan bemorlarda bosh miya o'zgarishlarini magnit rezonans tomografiya tekshiruvini orqali baxolash .....	341
<b>Qaraxonova S.A, Murodov G'X, Ernaeva G.X.</b> Xavotirli-fobik sindromda psixokorreksiya .....	342
<b>Qaraxonova S.A, Ernaeva G.X.</b> Taekvondo sportchilarida musobaqadan oldingi psixodiagnostik tekshiruvlarning ahamiyati .....	342
<b>Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A.</b> Diffuz toksik buqoq klinik simptomlari .....	344
<b>Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A.</b> Diffuz toksik buqoq klinik xususiyatlari .....	346
<b>Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A.</b> Diffuz toksik buqoqda giperkoagulyasiyaning patogenetik aspektlari .....	348
<b>Qurbanova S.Y., Murodova I.A., Yo'ldasheva S.M.</b> St.Aureus patogen shtammlaridan zardob olish texnologiyasi .....	350
<b>Qutlimuratov I.Sh.</b> Immunoglobulin e klinik ahamiyati .....	350
<b>Rahimova Sh.M., Saidvaliyev F.S.</b> Birlamchi bosh og'riqlaridagi abuzus bosh og'rig'ining klinik-nevrologik xususiyatlari .....	352
<b>Rakhimbaeva G.S., Mallaev F.S.</b> The role of atherocalcinosis in the development of atherothrombotic subtype of ischemic stroke. Management of medical treatment tactics .....	353

## **COVID-19 KLINIK KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch.**  
**Toshkent tibbiyot akademiyasi,**  
**2-Zangiota yuqumli kasalliklar shifoxonasi**

Yangi ming yillikda odamlar bir necha bor xavfli viruslar ta'siriga duch keldi. Vabo va tif o'rnini viruslar egalladi. Atrof-muhitning o'zgarishi, iqlimning isishi, aholi zichligining oshishi va boshqa omillar xavfli viruslar paydo bo'lishiga olib kelsa, aholining yuqori migratsiya faolligi ularning butun dunyo bo'ylab tarqalishiga yordam berdi. 2019 yil koronavirusi hozirda ham davom etayotgan COVID-19 global pandemiyasiga olib keldi va xalqaro favqulodda holat sifatida tarixga kirib ulgurdi. Biz hali bu kasallikning xususiyatlarini o'rganishimiz, saboq olishimiz, aholi sog'ligini saqlashimiz, diagnostik, davolash va prognoztik kamchiliklarni tahlil qilishimiz kerak.

Koronavirus infeksiyasi ko'pgina bemorlarda belgilarsiz bo'lsada, ayrim bemorlarda kasallik og'ir ko'rinishda kechadi va xatto o'limga olib keladi. Bu ayniqsa surunkali kasalliklari bo'lgan bemorlarga aloqador. Tadqiqotlarda keltirilishicha, koronavirus bilan kasallanganlarning ko'p qismi shifoxonani mutlaqo sog'lom odam sifatida tark etmaydi. Ushbu kasallik asoratlari haftalab yoki hatto oylab davom etishi mumkin. Koronavirusdan keyin paydo asoratlar postkovid sindrom deb ataladi.

Epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra, 65 yoshdan katta odamlar, yurak-qon tomir kasalliklari, arterial gipertenziya, qandli diabet, semizlik, yomon sifatli o'smalar, surunkali o'pka, jigar va buyrak kasalliklari, immun tanqis xolatlar bo'lgan bemorlarda kasallik jiddiy asoratlarga olib keladi. Xususan, jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlarda nafaqat COVID-19 og'ir kechishi, balki asosiy kasallik bo'lgan surunkali jigar kasalligini ham qo'zishiga sabab bo'ladi.

COVID-19 klinik kechishi quyidagicha: engil (yuqori nafas yo'llari zararlanishi bilan)– 81% xolatlarda, o'rta og'ir (nafas etishmovchiligisiz pnevmoniya), og'ir (pnevmoniya, nafas etishmovchiligi, 24–48 soat ichida o'pkaning 50% dan ko'p qismini egallagan «jilosiz shisha» ko'rinishida infiltratlar paydo bo'lishi) -14%, o'ta og'ir yoki kritik shakli (pnevmoniya, O'RDS, sepsis, septik shok, poliorgan etishmovchiligi) – 5%.

Oxirgi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, yuqtirgan odamlarning 80% da COVID-19 ning engil va o'rta og'ir klinik kechishi kuzatilib, jiddiy tibbiy yordamga va statsionar davoga muxtoj bo'lmaydi. Koronavirus infeksiyasi asosan nafas olish yo'llarini zararlasada, oxirgi ma'lumotlarga ko'ra COVID-19 tizimli kasallik bo'lib, nafas olish, yurak-qon tomir, oshqozon-ichak, peshob ajratish, nevrologik, qon yaratish va immun tizimlarni zararlaydi.

JSST va Xitoy Xalq Respublikasi xisobotlarida yangi koronavirus infeksiyasining tipik va notipik klinik belgilari ajratildi. Pnevmoniya COVID-19 ning tipik klinik ko'rinishidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, COVID-19 bilan

kasallangan bemorlarda pnevmoniyaga xos bo'lgan klinik belgilar ham mavjud. Markaziy nerv tizimi, ko'z, teri qoplamlari, oshqozon osti bezi, oshqozon-ichak trakti, peshob ajratish tizimi kabi a'zolarining zararlanishi notipik klinik belgilarga kiradi.

Dastlab SARS-CoV-2 infeksiyasi xarorat oshishi, xolsizlik, yo'tal, xansirash, kam xolatlarda bosh og'rishi, diareya, ko'ngil aynishi, qusish, xid va ta'm bilish buzilishi bilan kechadi. Keyinchalik bemorlarda koronavirusdan so'ng paydo bo'lgan postkovid sindrom asoratlari rivojlanib, u haftalab yoki hatto oylab davom etishi mumkin.

**Xulosa** qilib aytganda, koronavirus infeksiyasi bemorlarning 80% da COVID-19 ning engil va o'rta og'ir klinik kechishi kuzatilib, jiddiy tibbiy yordam va statsionar davoga muxtoj bo'lmaydi. 65 yoshdan katta va jiddiy xamrox kasalliklari bo'lgan bemorlarda kasallikning jiddiy asoratlari bo'lgan venoz va arterial tromboemboliya rivojlanadi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Частота тромбоемболических осложнений у больных с коронавирусной инфекцией // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. - №5. – С. 146-149.
2. Исомиддинова Н.К. и др. Жигар циррози ва COVID-19да коагуляцион гемостаз патологияси // Биофизика ва биокимё муаммолари, 2021. – В. 71.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Коронавирус инфекциясида гемостаз патологиясини лаборатор ташхислаш ва даволаш: услубий тавсиянома. Тошкент, 2022. - Б. 14-16.
4. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Оценка эффективности антиагрегантной терапии при коронавирусной инфекции // Pedagogical sciences and teaching methods. -2022. - №17. –С. 120-122.
5. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А., Муминов О.А. Лабораторный мониторинг патологии коагуляционного гемостаза у больных COVID-19 // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. №5. – С. 149-151.
6. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. и др. Характеристика функции тромбоцитов при COVID-19 // Тошкент тиббиёт академияси ахборотномаси. – 2021. -№1. – Б. 34-36.
7. Курбонова З.Ч., Муминов О.А. COVID-19 этиологияси ва патогенези тўғрисидаги замонавий талқин // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. - №5. – Б. 84-86.
8. Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Коронавирус инфекцияси клиник хусусиятлари // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2022. - №5. – С. 87-89.
9. Babadzhanova Sh.A. Kurbonova Z.Ch. Pathology Of Vascular-Platelet And Coagulation Hemostasis In Coronavirus Infection (Literature Review) // Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. - №14. – С. 149-156.
10. Kurbonova Z.Ch., Xo'shboqova G.O'. Alimova U.O. Covid-19 bo'lgan bemorlarda qon korsatkichlari // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. – 2021. - №1. – В. 31-34.